


ISTE'MOL BOZORI

(2020-yil yanvar oy)


Viloyat bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 225,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 10,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga kamaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik subyektlarining tovar aylanmasi 215,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,7 % ga o'sdi, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 21,0 mlrd. so'mni 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,4 % ga o'sgan.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (82,6 mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (40,1 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (21,3 mlrd. so'm), Mirzaobod tumani (20,7 mlrd. so'm), ijobil ta'sirini ko'rsatmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi (% da)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yilning mos davriga nisbatan minus 6,1 % ga pasaydi va 10,3 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,6 % ulushiga toʻgʻri keladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra 215,2 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 2,7 % ga oʼsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 95,4 % ga teng kelmoqda.




Chakana savdo tovar aylanmasi yanvar oyi yillar kesimida ulishi, (%) da



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi 2016-yil yanvar oyi 92,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2020-yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulishi 95,4 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushi, (%)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Mirzaobod (99,5 %), Sardoba va Xovos (99,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 4,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahrida (7,5 %), Yangiyer shahri (6,8 %) va Sirdaryo tumani (4,8 %) kuzatildi.

Chakana savdo aylanmasi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tovar aylanmasidagi hajmi

| | Chakana savdo aylanmasi (mlrd. so'm) | 2019-yilning shu davriga nisbatan, %da | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd. so'm) | 2019-yilning shu davriga nisbatan, %da |
|-------------------|--------------------------------------|--|--|--|
| Sirdaryo viloyati | 225,5 | 102,2 | 215,2 | 102,7 |
| Guliston sh. | 82,6 | 105,3 | 76,5 | 103,3 |
| Shirin sh. | 3,4 | 102,7 | 3,4 | 103,1 |
| Yangiyer sh. | 21,3 | 100,2 | 19,9 | 102,3 |
| tumanlar: | | | | |
| Boyovut | 11,6 | 98,9 | 11,4 | 101,8 |
| Guliston | 8,6 | 100,0 | 8,5 | 102,8 |
| Mirzaobod | 20,7 | 99,4 | 20,6 | 103,1 |
| Oqoltin | 11,5 | 99,2 | 11,4 | 101,5 |
| Sardoba | 9,6 | 99,5 | 9,5 | 102,0 |
| Sayxunobod | 7,6 | 100,1 | 7,5 | 102,8 |
| Sirdaryo | 40,1 | 102,2 | 38,1 | 102,1 |
| Xovos | 8,5 | 102,1 | 8,4 | 102,4 |

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo' shgan holda) aholi jon boshiga 0,6 % ga oshib, 274,1 ming so'mni tashkil etdi (2019-yilda 236,8 ming so'mni tashkil qilgan).

Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar oyi (%) da.



2020-yil yanvar oyi chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 274,1 ming. so'mni tashkil qilib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 0,6 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2020-yilning yanvar oyi 2019-yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (933,6 ming. so'm), Yangiyer shahri (507,8 ming. so'm) va Sirdaryo tumanida (321,8 ming. so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (91,2 ming. so'm), Boyovut tumani (91,7 ming. so'm) va Sayxunobod tumanida (101,1 ming. so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming. so'm | 2019-yilning shu davriga nisbatan, % da |
|--------------------------|--------------|--|
| Sirdaryo viloyati | 274,1 | 100,6 |
| Guliston sh. | 933,6 | 104,4 |
| Shirin sh. | 186,5 | 102,2 |
| Yangiyer sh. | 507,8 | 98,3 |
| tumanlar: | | |
| Boyovut | 91,7 | 97,2 |
| Guliston | 122,7 | 97,6 |
| Mirzaobod | 293,1 | 97,3 |
| Oqoltin | 227,2 | 97,6 |
| Sardoba | 149,1 | 97,6 |
| Sayxunobod | 101,1 | 98,4 |
| Sirdaryo | 321,8 | 100,8 |
| Xovos | 91,2 | 100,6 |


Jumladan, 2020-yilning yanvar oyi chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 4,4 mlrd. so'mga yetdi yoki 2019-yilning mos davriga nisbatan 2,3 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

SIRDARYO VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI (2020-yil yanvar oyi)

2020-yil yanvar oyi viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 106,3 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2019-yilning shu davriga nisbatan 7,9 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalar 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra 85,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 1,8 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 80,1 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, Yangiyer, Shirin (99,7 %) va Guliston shaharlarida (97,0 %) yuqori bo'lган.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



■ kichik korxonalar va mikrofirmalar


■ Yirik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2020-yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 21,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning shu davriga nisbatan 42,2 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 19,9 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqoslaganda, Sardoba tumanida (96,4 %), Boyovut tumanida (91,2 %) va Xovos tumanida (85,0 %) yuqori bo'lgan.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

| | Jami (mlrd. so'm) | 2019-yilning shu davriga nisbatan, % da | Yirik korxonalar (mlrd. so'm) | 2019-yilning shu davriga nisbatan, % da | Kichik korxonalar va mikrofirmalar (mlrd. so'm) | 2019- yilning shu davriga nisbatan, % da |
|------------------------------|----------------------|--|-------------------------------------|--|---|--|
| Sirdaryo viloyati | 106,3 | 107,9 | 21,1 | 142,2 | 85,2 | 101,8 |
| Guliston sh. | 41,4 | 101,0 | 1,3 | 82,1 | 40,1 | 101,7 |
| Shirin sh. | 0,1 | 101,7 | - | - | 0,1 | 101,7 |
| Yangiyer sh. | 2,6 | 101,7 | - | - | 2,6 | 101,7 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Boyovut | 7,5 | 345,7 | 6,9 | 449,9 | 0,6 | 101,8 |
| Guliston | 2,2 | 87,1 | 1,0 | 74,8 | 1,2 | 101,5 |
| Mirzaobod | 7,8 | 100,3 | 1,4 | 93,0 | 6,4 | 102,0 |
| Oqoltin | 1,6 | 82,4 | 1,0 | 74,8 | 0,6 | 101,3 |
| Sardoba | 3,9 | 249,3 | 3,7 | 263,5 | 0,2 | 101,8 |
| Sayxunobod | 7,7 | 127,2 | 3,0 | 208,6 | 4,7 | 101,4 |
| Sirdaryo | 29,9 | 98,9 | 1,4 | 61,7 | 28,5 | 101,9 |
| Xovos | 1,6 | 61,1 | 1,4 | 57,0 | 0,2 | 102,0 |

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulushi, (%) da



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (39,1 %), Sirdaryo tumanida (28,2 %), Mirzaobod tumanida (7,3 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi
Tel.: (71) 230-86-34